

PRESS-RELIZ

“EL-YURT UMIDI” JAMG‘ARMASI BITIRUVCHILARINING BRANCHI: OCHIQ MULOQOT, YANGI G‘OYALAR VA HAMFIKRLAR JAMOASI

Bugun, 25-oktyabr kuni, Toshkentda “El-yurt umidi” jamg‘armasi bitiruvchilari va stipendiatlarining norasmiy, ammo ramziy ahamiyatga ega uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi. Ushbu tadbir ochiq muloqot, g‘oyalar almashinuvi va yangi avlod mutaxassislarining kuchli hamjamiyatini shakllantirish maydoniga aylandi.

Uchrashuvning samimiy va ishonchli muhiti ishtirokchilarga — nufuzli xorijiy universitetlar bitiruvchilari, yosh mutaxassislar, davlat idoralari va nodavlat tashkilotlar vakillariga nafaqat tanishish, balki Jamg‘arma transformatsiyasining asosiy yo‘nalishlari, inson kapitali va ta‘lim sohasidagi islohotlarni muhokama qilish imkonini berdi.

Ochiq mikrofon formatida stipendiatlar o‘zlarining muvaffaqiyat tarixi, O‘zbekistonga qaytish haqidagi taassurotlari, shaxsiy loyihalarini amalga oshirish tajribasi bilan o‘rtoqlashdilar. Bitiruvchilarni ishga joylashtirish, mentorlik va karyera yo‘nalishi bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflar, shuningdek, Jamg‘arma bitiruvchilari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning yagona platformasini yaratish g‘oyalari ilgari surildi.

Dasturda ishtirokchilar o‘rtasida jamoa ruhi, ishonch va hamjihatlikni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv o‘yinlar va jamoa tuzish tadbirlari alohida o‘rin egalladi. Bu shunchaki bitiruvchilar uchrashuvi emas, balki har bir kishi o‘z hissasini qo‘shishi, eshtilishi va umumiy kelajakning bir qismiga aylanishi mumkin bo‘lgan yangi muloqot madaniyatidir.

Branchi formati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev belgilab bergan: “Sifatli ta‘lim va inson kapitalini rivojlantirish — kambag‘allikni qisqartirish va mamlakatning barqaror o‘sishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi” degan yo‘nalishning davomi bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan, “El-yurt umidi” jamg‘armasi xorijda ta‘lim olishni shunchaki qo‘llab-quvvatlamayapti, balki iqtisodiyot va boshqaruvga bilim va tajribani qaytarish tizimini shakllantirib, yoshlar va davlat o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatmoqda.

Branch yangi tashabbuslar — **“El-yurt umidi” Alumni Community**” bitiruvchilar hamjamiyatini tashkil etish, ta‘lim, innovatsiyalar va ijtimoiy siyosat sohalarida qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish bo‘yicha umumiy muhokama bilan yakunlandi. Tadbir shuni ko‘rsatdiki, Jamg‘arma stipendiatlari nafaqat jahon tajribasiga ega mutaxassislarga, balki islohotlarning faol ijrochilari va yangi, ochiq O‘zbekistonning elchilariga aylanmoqda.

Ma‘lumot uchun:

2018–2025-yillarda “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan 2 ming 300 nafardan ortiq stipendiat 45 taga yaqin davlatga o‘qishga yuborilgan. Hozirgacha ularning 1 ming 400 nafarga yaqini O‘zbekistonga qaytib, iqtisodiyot tarmoqlarida, ta‘lim, fan, tibbiyot va davlat boshqaruvida ishlamoqda.

Ish faoliyatini olib borayotgan stipendiatlar sohalar kesimida: Ta‘lim — 47%, davlat boshqaruvi — 21%, sog‘liqni saqlash — 9,5%, biznes va boshqaruv — 6%, muhandislik ishi — 4,3%, ishlab chiqarish va ishlov berish sohalar — 3,5%, huquq — 2,7%, axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalari — 2%, boshqalar — 4%

“El-yurt umidi” jamg‘armasi

Jamoatchilik bilan aloqalar va axborot xizmati

ПРЕСС-РЕЛИЗ

БРАНЧ ВЫПУСКНИКОВ ФОНДА «ЭЛ-ЮРТ УМИДИ»: ОТКРЫТЫЙ ДИАЛОГ, НОВЫЕ ИДЕИ И СООБЩЕСТВО ЕДИНОМЫШЛЕННИКОВ

Сегодня, 25 октября, в Ташкенте состоялся бранч выпускников и стипендиатов Фонда «Эл-юрт умиди» — неформальная, но символически важная встреча, ставшая площадкой открытого диалога, обмена идеями и формирования сильного сообщества профессионалов новой формации.

Тёплая и доверительная атмосфера встречи позволила участникам — выпускникам престижных зарубежных университетов, молодым специалистам, представителям госструктур и международных организаций — не просто познакомиться, но обсудить ключевые направления трансформации Фонда, реформ в сфере человеческого капитала и образования.

В формате открытого микрофона стипендиаты делились своими историями успеха, впечатлениями о возвращении в Узбекистан, опытом реализации собственных проектов. Прозвучали конкретные предложения по совершенствованию механизмов трудоустройства, наставничества и карьерного сопровождения выпускников, а также идеи по созданию единой платформы взаимодействия выпускников Фонда.

Особое место в программе заняли интерактивные игры и тимбилдинг-активности, направленные на развитие командного духа, доверия и сплочённости между участниками. Это не просто встреча выпускников — это новая культура коммуникации, где каждый может внести свой вклад, быть услышанным и стать частью общего будущего.

Формат бранча стал продолжением курса, обозначенного Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым: «Качественное образование и развитие человеческого капитала — главный драйвер сокращения бедности и устойчивого роста страны». В этом контексте Фонд «Эл-юрт умиди» не просто поддерживает обучение за рубежом, а формирует систему возвращения знаний и опыта в экономику и управление, создавая прочную связь между молодёжью и государством.

Бранч завершился общим обсуждением новых инициатив — **создания сообщества выпускников «El-yurt umidi Alumni Community»**, разработки совместных проектов в сфере образования, инноваций и социальной политики. Мероприятие показало: стипендиаты Фонда становятся не просто профессионалами с мировым опытом, а активными проводниками реформ, послами новой открытой Узбекистана.

Для сведения:

В 2018-2025 годах Фондом «Эл-юрт умиди» более 2,3 тысячи стипендиатов были направлены на учебу почти в 45 государств. К настоящему времени около 1,4 тысячи из них вернулись в Узбекистан и работают в отраслях экономики, образования, науки, медицины и государственного управления.

Распределение работающих стипендиатов по сферам деятельности: Образование - 47%, государственное управление - 21%, здравоохранение - 9,5%, бизнес и управление - 6%, инженерное дело - 4,3%, производство и промышленность - 3,5%, юриспруденция - 2,7%, информационно-коммуникационные технологии - 2%, другие - 4%

**Служба по связям с общественностью и информации
Фонда «Эл-юрт умиди»**